

GEOGRAFIYA FANINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN ELEKTRON TA’LIMiy RESURLAR VA ULARNING AFZALLIKLARI

Erali Jurayev

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya fanini o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va platformalari yordamida geografik bilimlarni o‘quvchilarga samarali tarzda yetkazish usullari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, elektron resurslarning afzalliklari, ularning o‘qitish jarayonidagi roli hamda real hayotdagi geografik bilimlarni o‘rganishga qo‘shadigan hissasi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Geografiya, elektron ta’lim resurslari, interaktiv ta’lim, Google Earth, ArcGIS, zamonaviy, o‘quvchi, ta’lim texnologiyalari

KIRISH. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimini sezilarli darajada o‘zgartirib yubordi. Geografiya fani – bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki dunyoning turli hududlarini o‘rganish va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan fanlardan biridir. Geografiya fani bo‘yicha bilimlarni samarali o‘rgatish uchun zamonaviy elektron ta’limiy resurslardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu resurslar o‘quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va ma’lumotlarga boy qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog‘i orqali real vaqt tizimida o‘qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta’lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta’lim tizimi ixtiyoriy masofadan turib hech bir to‘siqlarsiz ta’lim berish va ta’lim olish imkoniyatini beradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta’lim tizimida o‘qitish samaradorligi yuqoriroqdir (Means, Toyama, Merfi, Bakiya va Jons, 2013). Real vaqt tizimidagi masofaviy o‘qitish tizimida video ma’ruzalardan foydalanish eng samarali o‘qitish usulidir. Misol keltiradigan bo‘lsak, Vang (2008) Tayvanda 10 yil tibbiyot sohasida o‘qib, onlaynda o‘qitilayotgan tibbiyot bo‘yicha video ma’ruzalar yordamida aholi orasida tibbiy xizmatni yaxshilanganligini aytadi. Yana bir misol, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan Chung Ang universitetida har bir fan bo‘yicha onlayn elektron sinfi (e-class) mavjud. Fanga qatnashishga ro‘yxadan o‘tgan talaba “e-class” ga ham kirish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu “e-class” da nafaqat Microsoft Power Point dasturida qilingan prezentatsiyalar balki, video ma’ruzalar, uy vazifasi topshiriqlari ham mavjud. Mashg‘ulotga ma’lum sabab bilan qatnasha olmagan yoki darsni yaxshi o‘zlashtira olmagan talaba “e-class” ga kirib video ma’ruzalardan

foydalanishi mumkin. Bu albatta ta’lim olish samaradorligini yanada oshirdi va ta’lim oluvchilarda fanlarga oid bilimlarni egallashda qulayliklar imkoniyatini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta’limning samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda va bundan keyin ham shunday bo‘lishi kutiladi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to‘xtovsiz va uzluksiz kechmoqda.

Elektron ta’lim resurslar (ETR) - davlat ta’lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni taminlaydigan, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron ta’lim– uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta’lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

Elektron ta’limiy resurslarning afzalliklari juda ko‘pdir. Geografiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan elektron ta’limiy resurslar bir qator afzalliklarga ega. Jumladan elektron resurslar yordamida o‘quvchilar xaritalar bilan ishlash, interaktiv testlar va simulyatsiyalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sun’iy yo‘ldosh suratlari, 3D xaritalar va animatsiyalar orqali murakkab geografik jarayonlarni tushuntirish va tushunish yanada osonlashadi. O‘quvchilar geografik mavzularni o‘zlariga qulay vaqtda va qulay joyda o‘rganishlari mumkin. Internet orqali dunyoning turli hududlari va ularning geografik xususiyatlari haqida ma’lumotlarga boy resurslardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ushbu afzalliklardan o‘quv jarayonida keng va unumli foydalanish ta’lim sifatining oshishiga va fanni chuqur o‘zlashtirishda katta rol o‘ynaydi.

Zamonaviy elektron ta’lim resurslarining afzalligi, avvalo, o‘quv jarayonida o‘quvchilarda mustaqil, faol va samarali tashkil etishdan iborat. Ta’lim jarayoniga elektron ta’limiy resurslarni joriy etish o‘quvchilarga fan bo‘yicha axborotning to‘liq manzarasini namoyish etish bilan birga, o‘quv materialini mustaqil ravishda o‘zlashtirish, o‘qitishni individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi, ya’ni o‘quv jarayoning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy elektron ta’lim resurslarning afzalligi o‘quvchiga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirishida pedagogning o‘qitish funksiyasi o‘quvchining o‘ziga o‘tadi. Bunda pedagog o‘quvchini faqatgina qo‘llab-

quvvatlaydi, o‘quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda kerakli ko‘rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

Geografiya fanini o‘qitishda quyidagi asosiy platformalar va vositalardan foydalanish mumkin:

1. Google Earth: Dunyo xaritalarini ko‘rish, qidirish va sayohat qilish imkonini beradigan platformadir. O‘quvchilar geografik obyektlarni vizual ravishda o‘rganish orqali ularning joylashuvi va xususiyatlarini yaxshi tushunishadi. Ushbu platforma geografiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi. Google Earth platformasi yordamida o‘quvchilar nafaqat an‘anaviy xaritalarni, balki sun‘iy yo‘ldosh tasvirlarini ham bemalol tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilmiy yangilik sifatida, bu vosita o‘quvchilarga geografik obyektlarni vizual ko‘rish va amaliyotda foydalanish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. ArcGIS Online: Geografik axborot tizimlari (GIS) bilan ishlashni o‘rganish uchun mo‘ljallangan platforma hisoblanadi. Bu vosita yordamida o‘quvchilar geografik ma‘lumotlarni tahlil qilish va xaritalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. ArcGIS Online platformasi geografik axborotlarni boshqarish va vizualizatsiya qilish imkoniyatini beradi. Ushbu vosita yordamida o‘quvchilar GIS texnologiyalarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar, bu esa geografiya fanini o‘qitishda ilmiylik va amaliyotni birlashtirishga imkoniyat yaratadi.

3. Kahoot va Quizizz: Interaktiv va o‘yin shaklida bilimlarni baholash platformasi. Onlayn viktorinalar orqali geografiya bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash va o‘quvchilarni rag‘batlantirish uchun ishlatiladi. O‘quvchilar uchun quvnoq testlar va viktorinalar yaratish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarda zerikish kamroq kuzatiladi hamda faollik oshishiga olib keladi.

4. National Geographic Education: Turli xil mavzular bo‘yicha o‘quv materiallari va resurslarni taqdim etuvchi platforma. Mazkur platforma geografiya bo‘yicha turli xil mavzularni qamrab oladi va keng ko‘lamli o‘quv materiallarini taqdim etadi. Ushbu resurslarning ilmiy yangiligi shundaki, ular eng so‘nggi tadqiqotlar va ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu ma‘lumotlar juda ajoyib tarzda va ko‘rgazmali ko‘rinishda bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning samarali bilim olishiga sabab bo‘lishi mumkin.

5. World Atlas: Bu resurs orqali o‘quvchilar dunyo xaritalari, mamlakatlarning geografik joylashuvi va statistik ma‘lumotlarini o‘rganishlari mumkin. Ushbu atlasdan 9-sinf o‘quvchilari jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi kursini o‘zlashtirishda foydalanishi ayni muddao bo‘ladi. Chunki o‘rganayotgan mamlakatining xaritasini ko‘rish va foydalanish orqali shu mamlakat xaritasi va mamlakat haqidagi ma‘lumotlarni o‘zaro bog‘lashadi. Natijada mamlakat haqida yorqin tasavvur hosil bo‘ladi va bilimlari mustahkamlanadi.

6. EarthViewer: Bu mobil ilova orqali o‘quvchilar yerning tarixini, qit’alar va okeanlarning o‘zgarishini interaktiv tarzda kuzatishlari mumkin. Bu ilova 6-7-sinf o‘quvchilari uchun juda ahamiyatli bo‘lib, yerning geoxronologiyasi, qit’alarning materiklar dreyfi gipotezasi haqida tasavvurlarining kengayishiga imkon beradi.

7. UN Data: BMT tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, unda iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa turdagi geografik ma’lumotlar mavjud. Bu turdagi ma’lumotlar o‘quvchilarning ma’lum hudud haqida aniq statistik bilimlarga ega bo‘lishiga sharoit yaratadi.

8. Khan Academy: Bu platformada geografiya, ekologiya kabi fanlar bo‘yicha videolar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga mavzularni yaxshi tushunishga yordam beradi. Bu videolar o‘quvchilarga ma’lumotlarni interaktiv, qiziqarli hamda jozibali ko‘rinishda taqdim etadi. O‘quvchilar bu platformadan foydalangan holda bilimlarini yanada boyitadilar.

Geografiya fanini o‘qitishda elektron resurslardan foydalanishning amaliy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **Darslarni rejalashtirish:** O‘qituvchilar elektron resurslar yordamida darslarni yanada samarali tashkil qilishlari mumkin. Masalan, xaritalar va sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlarini qo‘llash orqali mavzuni tushuntirish. Dars rejasiga kiritilgan mavzularga mos elektron resursni tanlagan holda darsning olib borilishi o‘quvchi va o‘qituvchining faolligini oshirib, dars jarayonini yanada mazmunli qiladi.

- **Dala amaliyoti ishlari:** Elektron platformalar yordamida o‘quvchilarga real hayotdagi tadqiqot ishlarini simulyatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarning kelajakdagi kundalik hayotida duch keladigan masalalariga yechim topishda qo‘l keladi. Masalan, o‘quvchi joyda turib mo‘ljallash amaliyoti qanday bo‘lishini vizual tarzda ko‘rsa, amaliyotda uni qo‘llash bilan bog‘liq muammolarga kamroq duch keladi.

- **Geografik ma’lumotlarni tahlil qilish:** GIS vositalaridan foydalanib, o‘quvchilar geografik ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va ularni tahlil qilishni o‘rganadilar. Shu jarayonda o‘quvchilarning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlari rivojlanib boradi.

XULOSA

Geografiya fanini o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu resurslar o‘quv jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi. Shuningdek, ular o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Geografiya fanini rivojlantirish va uni o‘qitish sifatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Turli sohalarda katta hajmdagi axborotlarning to‘planishi, yaxlit axborot makonining vujudga kelishi, ularni saqlash, qayta ishlash, uzatish jarayonlarida zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni bilish lozim. Bu borada

ta'lim tizimida ham o'quv jarayonini olib borish uchun mo'ljallangan turli kompyuter dasturlari ishlatilib kelinmoqda va ularning soni kun sayin ortmoqda. Elektron ta'lim resurslari deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda davr talabidagi kerakli interfaollik, ko'rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko'paytirishda kam xarajat sarflash, ko'p variantlilik, ko'p bosqichlilik bo'lish bilan birga bilim va ko'nikmalarni tekshirish uchun topshiriqlar, vaziyatli masalalar, keyslar va testlar to'plamining ko'p bo'lishi hamda vaqti-vaqti bilan yangilanib turishini ta'minlaydi. Bu esa ta'limining aniqlik va zamonaviylik tamoyiliga mos keladi desak adashmaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
2. Botir Boltabaevich Baymetov, Khusan Kholmuratovich Muratov. Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology. 2020/2/29. Vol. 63 № 2 (2020). 224-231.
3. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education – M. : IITO YUNESKO, 2013.
4. Jones, R., & Smith, L. (2023). "The Role of Digital Tools in Modern Geography Education" *Educational Research Journal*, 45(2), 123-135.
5. Measuring the Information Society (MIS). Executive Summary. ITU edition, 2015.
6. Novak, P. The Growing Digital Divide: Implications for an Open Research Agenda. Understanding the Digital Economy: Data, Tools and Research. Ed. B. Kahin and E. Brynjolffson. Cambridge, MA: The MIT Press., 2000.
7. X.X.Muratov, Sh.A.Yusupova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. Academic Research in Educational Sciences . Volume 1 Issue 3 2020.
8. ArcGIS Online. (2025). <https://www.arcgis.com/>
9. Google Earth. (2025). <https://www.google.com/earth/>
10. National Geographic Education. (2025). <https://education.nationalgeographic.org/>